

“Ta’minot zanjirini moliyalashtirish”
(Supply Chain Finance) loyihasi asosida faktoring
operatsiyalarini o‘tkazish
va hisobini yuritish to‘g‘risidagi
Vaqtinchalik Tartibga
1-sonli ilova

“Asia Alliance Bank” ATB tomonidan
“Ta’minot zanjirini moliyalashtirish” (Supply Chain
Finance) loyihasi asosida faktoring operatsiyalarini
o‘tkazish va hisobini yuritish to‘g‘risidagi
Vaqtinchalik Tartibi”ga kiritilayotgan 1-sonli
o‘zgartishlar va qo‘shimchalarga 1-sonli ilova

**“KLASSIK FAKTORING”
nomli mahsulot pasporti (offline tartibda)**

Ko‘rsatkichlar	Tavsifi		
Mahsulot maqsadi	Yetkazib beruvchi tovar/mahsulot (bajarilgan ish/xizmat) yetkazib berilganidan so‘ng yuzaga kelgan qarzdorlikni Faktor-Bank tomonidan diskont chegirilgan holda moliyalashtirishni anglatadi. Bunda faktoring mahsulotidan foydalanish bo‘yicha tashabbus Yetkazib beruvchi tomonidan bildiriladi.		
“ASIA ALLIANCE BANK” ATB tizimida Korporativ mijozlarga (Yetkazib beruvchi) bo‘yicha mazkur mahsulot yuzasidan oldindan belgilangan limit hisoblash metodologiyasi	<p>Yetkazib beruvchi bo‘yicha oldindan belgilangan limit quyidagi formula orqali aniqlanadi:</p> $OL = \left(\frac{XA}{6} - \frac{T}{12} \right) * 50\%$ <p>Bunda: OL – Oldindan belgilangan limit XA – Barcha tizimidagi xisobraqami bo‘yicha so‘nggi 6 oy davomida amalga oshirgan aylanma summasi; T – Barcha bank tizimidagi mavjud kreditlari bo‘yicha keyingi 12 oy davomida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan jami to‘lov. Agar natija “0” teng yoki manfiy bo‘lsa, mijozga oldindan belgilangan limit mavjud emasligini anglatadi.</p>		
Limit muddat (maks)	Limit muddati – 12 oygacha belgilanadi;		
Faktoring muddati	180 kungacha;		
Bank tomonidan Limit o‘rnatiladigan korxonalar	Yetkazib beruvchi		
Bank tomonidan moliyalashtiriladigan korxonalar	Yetkazib beruvchi		
Valyuta turi	Milliy valyuta (so‘m)		
Mahsulot narxi	Bunda faktoring muddati 90 kunga rasmiylashtirilganda diskont summasi umumiy faktoring summasidan 5,25 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda (<i>diskont summasi faktoring muddatidan kelib chiqib, proporsional miqdorda belgilanadi, yillik 360 kunlik bazaviy davr asosida amalga oshirilad, misol uchun: 3 oyga ya‘ni 90 kunga 5,25% belgilangan bo‘lsa, shundan kelib chiqib, 1 oy uchun 1,75%: 5,25%/3 hisoblanadi</i>)		
	1 oy uchun 1,75%-2,5%	3 oy uchun 5,25%-7,5%	5 oy uchun 8,75%-12,5%
	2 oy uchun 3,5%- 5,0%	4 oy uchun 7,0%-10,0%	6 oy uchun 10,5%-15%
Muddati o‘tgan qarzdorlik	Agar faktoring to‘lovlari belgilangan muddatda to‘lanmasa va u bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirda To‘lovchi/Yetkazib beruvchi bankka kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov		

	summasining 0,1% miqdorida jarima to'laydi, bunda bazaviy davr 365 kun asosida amalga oshiriladi.
% stavka bo'lsa o'zgarma yoki o'zgaruvchanligi	O'zgarma (qat'iy)
Mahsulotni taqdim etish usuli	Pul ko'chirish yo'li bilan
To'lovchi va Yetkazib beruvchiga qo'yiladigan talablar	<p>Yetkazib beruvchi bo'yicha:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. "Asia Alliance Bank" ATB tizimida asosiy/ikkilamchi hisob raqami mavjudligi; 2. "Asia Alliance Bank" ATB tizimidagi joriy kreditlari bo'yicha muddati o'tgan foiz yoki asosiy qarz to'lovlari mavjud emasligi; 3. "Asia Alliance Bank" ATB tizimida Kartoteka-2 hisobraqamida qoldiq summa mavjud bo'lmasligi; 4. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-son shakl) foyda bilan yakunlangan bo'lishi, bundan qonun hujjatlariga muvofiq asoslantirilgan holatlarda zararda yakunlangan hollar mustasno; 5. O'z aylanma mablag'lari mavjudligi ijobiy ko'rsatkichda bo'lishi; 6. Kreditlar tarixi bo'yicha oxirgi 1 yil ichida: 30+dan oshgan muddati o'tgan qarzliliklari 10 tadan ko'p bo'lmasligi; 60+dan oshgan muddati o'tgan qarzliliklari 5 tadan ko'p bo'lmasligi; 90+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklariga bo'lmasligi; 10. "Asia Alliance Bank" ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan asosiy qarzdorlik bo'yicha oraliq hamda yakuniy to'lov muddatini uzaytirish holatlari 1 tadan ko'p bo'lmasligi; 11. "Asia Alliance Bank" ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan kreditga hisoblangan foiz qarzdorligi bo'yicha to'lov muddatini uzaytirish holatlari 1 tadan ko'p bo'lmasligi; 12. Oxirgi 3 yilda kredit xizmatlari bo'yicha (<i>javobgar uchun kafillik taqdim etilgan holatlar ham hisobga olinadi</i>) iqtisodiy sudda da'vo arizalari mavjud bo'lgan va da'vo arizasi qisman yoki to'liq qanoatlantirilgan bo'lmasligi. 13. "Asia Alliance Bank" ATB tizimida nazorat asosida o'zaro aloqador bo'lgan korxonalarining mavjud kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi bo'lmasligi. <p>To'lovchi bo'yicha:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. "Asia Alliance Bank" ATB tizimida asosiy/ikkilamchi hisob raqami mavjudligi; 2. "Asia Alliance Bank" ATB va boshqa banklar tizimidagi joriy kreditlaribo'yicha muddati o'tgan foiz yoki asosiy qarz to'lovlari mavjud emasligi; 3. Bank tizimida Kartoteka-2 hisobraqamida qoldiq summa mavjud bo'lmasligi; 4. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-son shakl) foyda bilan yakunlangan bo'lishi, bundan qonun hujjatlariga muvofiq asoslantirilgan holatlarda zararda yakunlangan hollar mustasno; 5. O'z aylanma mablag'lari mavjudligi ijobiy ko'rsatkichda bo'lishi; 6. Mavjud kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha muddati o'tgan kredit qarzdorligi bo'lmasligi; 7. Kreditlar tarixi bo'yicha oxirgi 1 yil ichida: 30+dan oshgan muddati o'tgan qarzliliklari 10 tadan ko'p bo'lmasligi;

	<p>60+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari 5 tadan ko'p bo'lmasligi; 90+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklariga bo'lmasligi;</p> <p>8. Oxirgi 3 yilda kredit xizmatlari bo'yicha (<i>javobgar uchun kafillik taqdim etilgan holatlar ham hisobga olinadi</i>) iqtisodiy sudda da'vo arizalari mavjud bo'lgan va da'vo arizasi qisman yoki to'liq qanoatlantirilgan bo'lmasligi.</p>
<p>Talab qilinadigan asosiy hujjatlar ro'yxati:</p>	<p>1. Yetkazib beruvchi:</p> <p>1.1. Faktoring bo'yicha limit o'rnatish uchun ariza: faktoring hajmi, foydalanish muddati va shu kabi ma'lumotlar qayd etilishi lozim;</p> <p>1.2. Har bir tuzilishi rejalashtirilayotgan "Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash" (faktoring) shartnomasi tuzish olish uchun ariza: faktoring hajmi, foydalanish muddati va shu kabi ma'lumotlar qayd etilishi lozim;</p> <p>1.3. Ustav va ta'sis shartnomasining o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan nusxalari, ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi.</p> <p>1.4. Ta'sischilarning faktoringni olish va belgilangan muddatlarda qaytarishga roziligi to'g'risidagi bayonnoma, agarda korxonada ustavida belgilangan bo'lsa.</p> <p>1.5. Direktorni tayinlash to'g'risidagi buyruqning nusxasi, direktor va bosh buxgalterning pasportlari.</p> <p>1.6. Yetkazib beruvchining tegishli davlat soliq inspeksiyasiga oxirgi hisobot davri (choraklik, yillik) uchun taqdim qilgan buxgalteriya balansi (1-son shakl), moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-son shakl), debitor-kreditor qarzdorliklari yoyilmasi (<i>Bank tomonidan dasturiy ta'minot orqali ma'lumotlar olinganda talab etilmaydi</i>);</p> <p>1.7. Bank regress huquqidan foydalanganda qo'yilishi mumkin bo'lgan to'lov talabnomasi akseptlanganligini tasdiqlovchi hujjat;</p> <p>1.8. To'lovchilar ro'yhati</p> <p>2. To'lovchi:</p> <p>2.1. Ustav va ta'sis shartnomasining o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan nusxalari, ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi.</p> <p>2.2. Ta'sischilarning faktoringni olish va belgilangan muddatlarda qaytarishga roziligi to'g'risidagi bayonnoma, agarda korxonada ustavida belgilangan bo'lsa.</p> <p>2.3. Direktorni tayinlash to'g'risidagi buyruqning nusxasi, direktor va bosh buxgalterning pasportlari.</p> <p>2.4. To'lovchining tegishli davlat soliq inspeksiyasiga oxirgi hisobot davri (choraklik, yillik) uchun taqdim qilgan buxgalteriya balansi (1-son shakl), moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-son shakl), debitor-kreditor qarzdorliklari yoyilmasi (<i>Bank tomonidan dasturiy ta'minot orqali ma'lumotlar olinganda talab etilmaydi</i>);</p> <p>2.5. Bank tomonidan qo'yilgan to'lov talabnomasi akseptlanganligini tasdiqlovchi hujjat. (<i>Bank tomonidan dasturiy ta'minot orqali ma'lumotlar olinganda talab etilmaydi</i>). Zaruriyatga qarab To'lovchi va Yetkazib beruvchilardan qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin.</p>